

OILADAGI IJTIMOY MUHITNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

Raximova Dildora Abzalovna
USAT Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
Abzalxonova Aziza Saidazim qizi
USAT Logistika yo'nalishi kunduzgi 1 kurs talabasi

Ma'lumki, insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasidagi eng samimiy, yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari va vositalarining taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga hos yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar o'zaro muloqot munosabatlari doirasining ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma'lum darajada buzulishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqlashlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi. Umuman, insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. Chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u qancha inoq, ahil va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo'ladi. Har qanday jamiyatning taraqqiyotida oilaning, oila mustahkamligining o'rnini beqiyosdir. Бугунги кун ижтимоий муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o'rnini bo'lganidek oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, unda ijobiy iqlimning hukm surishi, manashu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyotini, ijtimoiy taraqqiyotini taminlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oila bosh mezon hisoblanadi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom, noqobil va nizoli oilalarning ko'payishi, ajrashishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga, bunday nosog'lom psixologik muhitda nizoli-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz sharoitda dunyoga kelgan, shakillangan bola ham keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan, balki atrofdagilarga, qolaversa, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr-oqibatsiz, shavqatsiz, zolim, hudbin, jamiyat, yurt manfaatlariga zid turli salbiy tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi va shu asosda o'z

oilasiga, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin. Demak, oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligi, uning ravnaqini, tarqqiyotini belgilovchi, hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz uchun, insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekalogik, ichki va tashqi omillarning tahtidi ortib borayotgan ayni vaqtda oila mustahkamligini ta'minlash va bu masalani to'g'ri hal etishning asosiy yo'li bo'lmish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi hech kechiktirib bo'lmaydigan, o'ta jiddiy yondashishlarni talab etuvchi dolzarb masaladir.

Buning muvafaqqiyatli amalga oshishiga jamiyatimizning har bir fuqarosi birdek ma'suldir.

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi. Ijtimoiy funksiyalar haqida gapirganda, jamiyatning oilaga ta'sirini hamda umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini oilaning hal qiladigan ijtimoiy funksiyalarini hisobga olish lozim. Hozirgi zamon oilasining funksiyalari qatoriga quyidagilarni sanab o'tish mumkin: Iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy kabilar. Shular ichidan oilaning eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan funksiyasi tarbiyaviy funksiyasidir.

Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik salohiyatiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilgunicha javobgardir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimizning azaldan saqlab kelayotgan milliy urfodatlari, an'analari bu borada katta ahamiyatga ega. Jamiyatning komil fuqarosini shakillantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining maskur funksiyasi darajasiga kiradi.

Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulqiy na'munalar, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", -deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi. Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, shaxs katta, mustqil hayotda, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakillantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqilli, sog'salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa

qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada odob-axloq normalariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning normativ ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi.

Bunday oilada o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonunqoidalari vanormalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o'rgatilgan bo'ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya

muassasasida ham, keyinchalik maktab, kollej yoki litseyda o'qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni ma'suliyat bilan vijdonan bajaradigan bo'lib, bolalar jamiyatida hamisha o'z o'rniga ega bo'la oladi. Bunday farzandga turli bid'atlar, bemaza chaqiriqlar, da'vatlar ta'sir etmaydi, mustaqil fikrli, pok vijdonli inson bo'lib yetishadi. Chunki, oila bu kishilik jamiyati, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo'lsa jamiyat ham mustahkam bo'lishini o'zbek xalqi juda yaxshi biladi. Albatta, bolaning ijtimoiylashuvi jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqa ijtimoiy omillar ham mavjud. Masalan, jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan islohatlar, davlatning yoshlar siyosati, ta'lim muassasalari va u yerdagi ta'lim va tarbiya standartlari, diniy muassasalar, bozor munosabatlari kabi qator jarayonlar ushbu masalaning mazmun va mohiyatini belgilaydi.

Shunday qilib ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila bo'lib, aynan otana dastlabki ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charxlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani shaxs sifatida o'zligini anglashi, idrok etishi va shaxsiy fazilatlarini takomillashishiga yordam beradi. Oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni, unda ham otaning, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va unda normal insoniy munosabatlar, sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi (sog'lom, ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi) sog'lom, aqilli, kuchli iroda sohibi bo'lib yetishishiga imkon beradi. Bolaga ham otaning, ham onaning bo'lishining zaruriyati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va uning oilada o'zini tutishiga qarab, o'zini ayollar jinsiga taaluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo'lishini tasavvur qilsa, otasiga, uning onasiga bo'lgan munosabatlariga qarab, o'zini kelajakda oila

Бугунги кун ижтимоий-психологик муаммоларининг ўзига хос хусусиятлари қурганда қандай оила соҳибаси бўлиши лозимлигини билб бора, отаси ва унинг оилда мавқеига қараб, турмуш о'ртго'ига қандай муносабатда бўлиш лозимлиги то'ғ'рисида билим ва тасаввурларни орттйрйб борайди. Шу боис ҳам боланынг том ма'нода yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo'lishi uchun oila muhiti sog'lom, barqaror, oila a'zolari birbirlariga g'amxo'r, mehirlil va sadoqatli bo'lishlari o'ta muhimdir. Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlariga tayyor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir.